

NUTQ QUDRATLI KUCH

Rasulova Nazokatxon Rahimjonovna

*Farg'ona viloyati Yozyovon tumani 1-son kasb -hunar maktabi ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi*

Nutq qudratli kuch . U ishontiradi, undaydi, majbur etadi-degan edi mashhur g'arb donishmandi B.Emirson. Demak, nutq kishilarni ishontirish san'atidir. Mashaqqatli kasb egalari bo'lgan o'qituvchilar ham o'quvchilar bilan munosabatga kirishar ekan, avvalo, bolalarni bilim olishga ishontirishi, undashi lozim. O'quvchini ishontirish uchun avvalo o'qituvchi ishonarli gapirishi, nutqi ravon, tushunarli, chiroyli dalillangan, puxta asoslangan bo'lishi lozim. Shuningdek bu so'zlarga avvalo o'zi rioya qilmog'i shart.



Taniqli notiqalar ham o'z nutqlarini namunalari bo'lishi uchun quyidagi asosiy holatlarga e'tibor berganlar:

1. O'zi to'xtalmoqchi bo'lgan masala yoki mavzuni chuqur o'rganish, o'zlashtirib olish, undagi masalalarga o'z munosabatini aniq belgilab olish.
2. O'z dunyoqarashiga ega bo'lish, so'z bilan ish birligi nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.
3. Mavzuga mas'uliyat bilan yondashish, uni tinglovchi oldida to'liq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish.
4. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko'rish, ma'ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy uylab olish, masalalarni o'rtaga tashlash ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o'zaro bog'lanishini ta'minlashi, ma'lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olish, o'zi uchun alohida va keng to'xtalishi zarur bo'lgan o'rinlarni belgilab olish.

5.10-12 ming so'z boyligiga ega bo'lmog'i.

6. Badiiy kitoblarni mutolaa qilishi.

7. Sinonim-ma'nodosh so'zlarni yaxshi o'rganmog'i.

Ochiq chehrali o'qituvchi bola mehrini tez qozonadi. Bu saxovatli yurak egalari o'zining keng fe'li, o'tkir zehni, tiyron nigohi bilan ham o'quvchi qalbiga yo'l topadi. Shuningdek, madaniyatli o'qituvchi o'quvchi shaxsini hurmat qila oladi, unga shunday muomalada bo'ladiki, bola bu muloqotdan o'zining ahamiyatli, kerakli ekanligi his

etadi. Ahamiyatli bo'lish hissini tuygan bola qalbida o'qituvchi siymosi yanada ulug'lanadi. O'quvchini hurmat qila olgan o'qituvchigina chinakam ustozga aylanadi.

O'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlar ekan, u avvalo, nutqining ta'sirchanligiga e'tibor qaratmog'i lozim. Nutqni ta'sirchan etishning yo'llaridan biri vaziyatga mos, mavzuga xos bo'lgan xalq maqollari, ayniqsa ta'sir kuchi yuqori bo'lgan rivoyatlardan, she'rlardan, badiiy asarlardan foydalanishdir. Badiiy asarlarda epigraf qanday vazifani bajarsa, nutqda maqollar, aforizmlar, rivoyatlardan foydalanish ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi.

Sarvigulning soyasinda so'ldi gul, netmoq kerak?

Maktubni choparlar shohga yetkazishibdi. Bu satrlarni o'qigan Husayn Boyqaro shunday javob yozibdi:

Bargidin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak!

Saroy ahli chopar keltirgan xabardan so'ng dafn marosimiga kirishishgan va so'zning qudratiga qoyil qolishgan va ekan.

Nutq ta'sirchanligini oshirishda ovozning o'rni ham katta. Tiniq, jarangdor, shirali ovoz tinglovchini o'ziga maftun etadi.

Notiq pauza, urg'uga e'tibor bersa, nutq yanada samaraliroq natija beradi. O'xshatish, tasviriy vositalar metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, epitet, takror va adabiy ko'chimlardan foydalanish ham nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Shaxsning nutqidan, tovush talaffuzidan yoshi, bilim darajasi, fikrlashi, ma'lumoti va kasbi, qaysi millatga mansubligini bilib olsa bo'ladi. Psixologlar ba'zi shaxs nutqidan uning qanday xarakterga ega ekanligini ham aniqlaganlar:

1. Nutq balandligining o'zgarishi (baland-past).
2. Nutq tezligining o'zgarishi (to'xtalish, tez, sekin).
3. Ohang o'zgarishi (baland-past).
4. Nutqqa mos tovushlar (barmoqlarni qirsillatish, stol chertish).
5. Ovoz manbaining ko'chib turishi (chap, o'ng, umuman, turli tarafga).

Ma'lumki, nutqni turli usullarda talaffuz etish shaxsning ong osti bilan bog'liqdir. O'quvchilarning ilmiy bilimlarini rivojlantirish maqsadida ularga so'zdagi birgina tovushlarni o'zgartirish bilan ma'no butunlay o'zgarishini tushuntirish maqsadida turli topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, ha-ha-haqanday ma'noni, he-he-heqanday ma'noni, ho-ho-ho esa qanday ma'noni ifoda etishini misollar asosida tushuntirish talab etiladi. Topshiriqdagi birgina a-ye-o tovushlarining almashinishi natijasida turli xil ma'nolar hosil bo'lishini misollar asosida tushuntiradilar. Aytaylik, ha haqiqiy xursandchilik holatini, samimiylilikni bildiradi, he mensimaslik, o'zini katta tutishni, h oesa ishonchsizlik ma'nolarini ifoda etadi. Demak, har bir shaxsning psixoemotsional holatini uning nutqi tovush talaffuzi orqali – bilish mumkin. Bunday holatni, ya'ni tovushlarning uslubiy jihatlarini misollar asosida tushuntirish tovushlarni nutqda qanday qo'llash imkoniyatini ifoda etadi.

So'zdagi biror ma'no, albatta, shartli ravishda tovush va tovushlar birikmasi asosida ro'yobga chiqadi. Nutq tovushi o'z ma'nosidan tashqari qo'shimcha ma'nolarni ham ifoda etadi. Bunday ma'nolar ko'pincha fonetik vositalarda ifodalanadi. Inson o'z nutqining rang-barang bo'lishi uchun turli fonetik vositalardan turli uslublarda mohirona foydalana olishni bilishi zarur. Bu esa nutqning mazmunan pishiq, uslubiy ravon, shaklan hissiy bo'lishida juda ahamiyatlidir. Tilning fonetik uslubi nutq boyligini boyituvchi yoki zaiflashtiruvchi iste'mol muhitini hosil qiladi.

Nutqning ta'sir o'tkazuvchi funksiyasida intonatsiya katta rol o'ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab hislar va iroda xususiyatlari- norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar namoyon bo'ladi.

Intonatsiya – og'zaki nutqning ritmik-melodik tomoni, undagi ovoz tovlanishlari.

Tovush va so'zlarni talaffuz etishda intonatsiya talablariga rioya qilish notiqlik san'ati rivojiga ijobiy ta'sir etadi. "U bir necha so'zni juda tez aytardi, ammo ahamiyat berishi, alohida ta'kidlashi kerak bo'lgan so'zlarga, tovushlarga yoki iboraga yaqin kelganida, nutqini sekinlashtirar, kerakli so'zga asosiy e'tibor berib, so'ngra yashin tezligida jumlani tugatardi... U alohida diqqat qilish zarur bo'lgan bir-ikki so'zga ancha to'xtalib qolar, shundan so'ng o'nlab so'zga ketgan vaqt ketardi, ana shu bir-ikki so'zga". O'qituvchi yuqoridagi kabi so'zlarni talaffuz qilar ekan, ba'zan nutqni sekinlashtirib, ba'zan cho'zib o'qishni o'rgatishi aks holda gap yoki so'zning ta'kid ma'nosi, ohangdorligi yo'qolib qolishini mazkur misollar yordamida isbotlashi zarur. O'qituvchi intonatsiyaning ahamiyatini tushuntirish uchun ba'zan jim qolishi, ko'pincha to'xtab qolishi ham mumkin. Mashhur notiqlar qaysi jumlani yoki tovushni alohida uqtirmoqchi bo'lsalar, shundan so'ng bir to'xtab olishni mavsadga muvofiq deb ta'kidlaydilar.

Ma'lumki, intonatsiyaning matndagi o'rni qattiq va qat'iy qoidalar bilan belgilanmaydi. Bularning bari matnning mazmuni, notiqning qanday gapira olishiga va kayfiyatiga, tovushlarning qanday ishtirok etishiga bog'liqdir.

Bizga ma'lumki, artikulyatsiya ma'lum bir fikr ifodalash jarayonida, garchi har xil shaklda bo'lsa ham, barcha kishilar uchun bir xil tarzda fonatsion xususiyatlardan iborat bo'ladi. Ovozning pasayishi va kuchayishi, yo'g'on va ingichka ovoz bilan gapirishlar so'zlash jarayonidagi qo'shimcha faktorlar sanaladi.

Intonatsiyaning fonetik vositalar orqali ifoda etilishi bo'yicha Ye.D.Polivanov ovozning barcha sifatii, miqdoriy xususiyatlarini kommunikatsiyada rol o'ynovchi faktor ekanini aytadi: "So'zlarning mazmuni va ovoz tonining ohangdorligini o'z ichiga oluvchi tovush tomonining turli-tuman o'zgarishlari (bundan tashqari, yana nutq tezligi, ovozning turlicha bosqichdagi kuchi, ba'zi nutq organlarining tovush hosil qilishdagi harakatlari, masalan, so'lg'in yoki shiddatli faoliyat va boshqalar) va nihoyat ishoralar bilan to'ldirib boriladi."

Shuni aytish lozimki, intonatsion vositalar ichida fonetik vositalar asosiy o'rinni egallaydi. Bunga misol qilib A.Nurmonovning quyidagi fikrlarini asos qilib olishimiz

mumkin. Uning ta'kidlashicha, traditsion lingvistik tahlilda 5 fonema, bir morfema, bir so'zdan iborat bo'lgan Ahmad so'zini jonli nutqda turlicha talaffuz qilish bilan 16 xil mazmun ifodalash mumkin (javob, savol, undalma, chaqiriq, quvnoq, hayratlanish, norozilik, ogohlantirish, qahr, ta'na, jirkanish, yumshoq so'kish, yalinish, g'urur, qo'rqinch va boshqalar). L.K.Seplitis rus tili so'zlashuv nutqi fonetik-intonatsion vositalarini monografik tadqiq qilgan. Bu ishda so'zlashuv nutqida intonatsiya kishilar orasidagi nutqiy aloqada erkin, ba'zan ko'tariluvchi, ba'zida pasayuvchi ohangda ekanligini va bunda turli xil emotsional-ekspressiv mazmun ifodalanishini qayd etadi.

Tovushlarni cho'zish, ikkilantirish natijasida ruhiy holat, kayfiyat, emotsiyaning salbiyligi, emotsiyaning kuchli darajada kechishi, salbiy munosabat kabilar ifodalanadi. Sub'ektiv-emotsional xarakterdagi va avtorning simpatiyasi qaratilgan so'zlarda (nutq jarayonida) intonatsiya o'zgarishi bilan erkalash ottenkasi ham o'zgaradi. Bu asosan ikki xil akustik imkoniyat bilan ifodalanadi:

a) erkalashni ifodalaganda ovozning toni pasayadi, ovoz kuchsizlanadi; b) so'zda erkalash, e'zozlash ottenkasi bo'lmaganda esa, aksincha, ovozning kuchi zo'rayadi. Ayrim fonetik o'zgarishlar tufayli so'zlarning erkalash ottenkalari hosil bo'ladi. Kreativ kompetensiyani o'rgatish emas, balki uni o'quvchilarda faqat namoyon bo'luvchi xislatlarni rivojlantirish asosida shakllantirish mumkin. Albatta, fonetikaning uslubiy jihatlarini o'rganishda nutqdagi ohangdorlikni puxta o'rgatish muhim ahamiyatga. Tafakkur bilan chambarchas bog'langan nutq esda qoldirish jarayonida katta rol o'ynaydi. Nutq esda qolinayotgan material (ob'ekt)gina bo'lib qolmay, balki ham obrazli (aniq va ko'rsatma), ham abstrakt materialni eng yaxshi esda qoldirishning juda muhim sharti hamdir. Hosil qilingan bilimlar tovush tili bor bo'lgani tufayli mustahkamlanib, saqlanib qoladi. Xuddi shuningdek, har bir kishi bilimni nutq vositasi bilan aloqa qilish jarayonida, til vositasi bilan hosil qiladi. Biz hosil qilgan bilimlar so'z bilan ifoda qilingan shaklda esda olib qolinadi.

To'xtam ovozning vaqtincha to'xtashi bo'lib, bunda nutq a'zolari artikulyatsion to'xtaydi va nutq oqimi uziladi. To'xtam davrida nafas olinadi, nutqning navbatdagi qismini talaffuz etishga hozirlik ko'riladi. Notiq ifodalilikni to'g'ri egallagan bo'lsa, nutqdagi to'xtamlar orqali o'zining nutqiy ta'sirini kuchaytiradi. To'xtamlar ikki jihatdan samarali kechadi. Birinchidan, o'qituvchi to'xtash davomida o'z fikrlarini jamlab olsa, o'quvchiga esa fikrlarini bir joyga to'plash uchun sharoit yaratiladi, mushohada qilish uchun imkoniyat hosil bo'ladi. Bu kuchli qurol intonatsiyada nihoyatda muhimdir.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda muallimning nutqi katta o'rin tutadi. Shuning uchun uning nutqi hamma vaqt g'oyaviy yuksak, ravon, yumshoq, dilkash bo'lishi lozim. Har bir nutq o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bilimi va tushunchasini nazarda tutib tuzilishi shart. Shu bilan birga, o'qituvchining nutqi yosh avlod ko'z oldida uni o'rab olgan moddiy va ma'naviy dunyoning yangi qirralarini ochib

berishni maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchining nutqi ta'lim va tarbiya berishning asosidir.

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob-axloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim.

Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi, tinglovchiga yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Ko'p asrlik odatiy an'analarimizga ko'ra, "Assalomu alaykum"ning javobi "Vaalaykum assalom"dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham to'mtoqlashib ketdi, ya'ni salom berish uchun ham, uning javobi uchun ham birgina "Salom" ishlatiladigan bo'ldi. Bu tarixiy an'analarimizdan chetlashishdir.

O'qituvchining nutqi imkoni boricha sintaktik jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim. Har qanday bilim va tarbiya, asosan,

o'qituvchining dars hamda darsdan tashqari kundalik nutqi orqali berib boriladi. Nutqda, u qanday shaklda bo'lmasin, bizning qadriyatlarimizni qattiq xurmat qilinishi lozim. Pedagogik nutqiy muloqotning o'ziga xosligi o'qituvchining hamma yerda, har qanday sharoitda ham tarbiyachi ekanligi bilan xarakterlanadi. Pedagog o'z tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq auditoriyada, darsda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli sohalariga oid qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi. Bunday nutqda har bir narsa o'z o'rnida, me'yorida bo'ladi. Atamalarga, yangi so'zlarga berilgan izohlar sodda, o'quvchi hazm qiladigan sintaktik qurilmalarda beriladi. Qoida va nazariyalar hayotiy, o'quvchiga yaqin misollar bilan tanishtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Coates J. Women, Men and Language Studies in Language and Linguistics. 1993.

H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. Handbook For teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.

Lamy, M.N.& Hampel, R. Online communication in language learning and teaching. London: Palgrave Macmillan. 2006.

Richard Arum, Melisa Velez. Improving Learning Enviroment: School Discipline and Comporative Perspective. Stanford Universiy Press, USA: 2012.

Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The semantics of human interaction. Berlin: Mouton de Gruyter. (Expanded second edition). 2003.

Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. -T.2002.

Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. -T. 2002.

Abdulla Qahhor hikmatlari.-Toshkent: O'zbekiston. 1990.

Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. –Toshkent. 2005.
3-26 betlar.

Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. -T.1992.